



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No6(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 594 sahifa,
5-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bitiruvchi talabalarning qadriyatlar tizimining psixologik xususiyatlari	10
<i>Abdulazizova Muslima, Abdurasulova Sevinch, Ikromova Aziza, Iskanderova Sayyora</i>	
Oila va ta'lim tizimida raqamli xavfsizlik madaniyatini shakllantirish va uning psixologik omillari.....	14
<i>Nurmatov Nurhayot Nurziyot o'g'li, Yo'lchiyeva Zarinabonu Sanjarali qizi</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni	18
<i>Abdullayeva Arofatxon Abdavaxobovna, Mirzahamdov Shahriyor Botir o'g'li</i>	
O'quvchilarni sport musobaqalariga tayyorlashda jismoniy tarbiya o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasining tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish mexanizmlari	22
<i>Abduraximov Ziyodullo Xojiakbar o'g'li, Tuxtapulatov Shahobiddin Nuriddinovich, Nasimov Ulug'bek Orif o'g'li</i>	
Ta'limni raqamli transformatsiyalash sharoitida o'quv jarayonini tashkil etishning integratsion shakllarini qo'llash metodikasi.....	28
<i>Allamova Shoxista Shavkat qizi</i>	
Surxon vohasida sog'liqni saqlash tizimi: muammolar va yechimlar (Sherobod tumani misolida, 1925–1945-yillar).....	33
<i>Allamurotov Asadbek Baxtiyor o'g'li</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish	37
<i>Axmedova Muxabbat Axmedovna</i>	
Ko'p o'zgaruvchili funktsiyaning oraliq qiymatlari haqidagi teoremlar va ularning isbotlari	42
<i>Boqiyev X. X., Muxtorova Sevinch Asad qizi, Yuldoshova E'zoza Ravshan qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarining huquqiy tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	46
<i>D. M. Xolnazarova</i>	
Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar: tajriba-sinov natijalari asosida	49
<i>Ibragimova Aziza Toshniyazovna</i>	
Bo'lajak tabiiy fanlar o'qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishda interaktiv integratsiyaning roli	55
<i>Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi</i>	
Corrective Feedback in Foreign Language Learning Acts as a Vital Tool for Improving Accuracy With Research Indicating.....	58
<i>Kamalova Dilnoza Kurbanbayevna</i>	
Doping va halollik masalasi: sportdagi dolzarb muammo.....	64
<i>Kobilov Sobir Donakulovich</i>	
Yunon-rum kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchilarning teknik va taktik harakatlarini takomillashtirish usullari.....	69
<i>Muhtorov Abdusattor Abdupatto o'g'li</i>	
3-4 yoshli bolalarda nutqning grammatik tuzilishini shakllantirishning psixolingvistik asoslari	75
<i>Rasulova Xulkaroy Abduhalil qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda gender identifikatsiyasini rivojlantirishda ota-onalar bilan ishlashning mobil ilovaga asoslangan innovatsion modeli	80
<i>Razzoqova Mahliyo Qosimjonovna</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiya fanining zamonaviy metodik yondashuvlari va o'qitishning samaradorligi.....	84
<i>Sunnatillayeva Zarina Sulaymon qizi</i>	
Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning samaradorligini oshirish usullari	88
<i>Usmonov Salohiddin, Jo'rayeva Rayhona</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konfliktologik kompetentligini rivojlantirish konsepsiyasi	94
<i>Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Zariyeva Xolida Baxtiyor qizi</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning interfaol metodlari.....	100
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdualiyevich</i>	
O'quv jarayonida innovatsion baholash texnologiyalarining ilmiy-pedagogik mazmuni	103
<i>Sobirova Marjona Shavkat qizi</i>	
Taekvondochilarning musobaqa davrida hujumkorlik jihatlarini oshirish	110
<i>Abdufattoyev Abrorjon Abduraxmon o'g'li</i>	



Gender yondashuv asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik imkoniyatlari.....	114
<i>Shokirova Hilola Abduraxmon qizi</i>	
Ingliz tilida tinglab tushunish malakasini rivojlantirishda raqamli ta'limning samaradorligi	120
<i>Aytimbetova U. T.</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ...	124
<i>Axmedova Nazokat Erkinovna</i>	
"Inklyuziv ta'lim. gospital pedagogika" fanida dasturiy-metodik ta'minotning mazmuniy-texnologik va monitoring-dagnostik komponentlari.....	128
<i>Azamxonov Baxodir Sayitkamolxonovich</i>	
Ingliz tilida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda 5–6-sinf o'quvchilari uchun samarali usullar	132
<i>Rajabova Zarafshon Davronovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy nutq madaniyatini shakllantirishning innovatsion-metodik asoslari	135
<i>Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda sifat so'z turkumini o'rganish mazmuni.....	140
<i>Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi</i>	
Образность современной медицинской терминологии	144
<i>Дулдулова Наргиза Ашимовна, Мирзаахмедова Нигора Ашимовна</i>	
Развитие исследовательской компетентности младших школьников посредством межпредметной проектной деятельности.....	148
<i>Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Нормаматова Розия Уктам кизи</i>	
Психолого-педагогические риски цифровой образовательной среды	153
<i>Рузметова Хилола Абдушариповна, Моминова Мадина Шукурулла кизи</i>	
"TALIA": система контент-генерации на основе ИИ для подготовки учителей	157
<i>Хасанов Зафар Шавкат угли</i>	
Artificial Intelligence in Foreign Language Education: Enhancing Critical Thinking and Academic Communication Skills	164
<i>Allamuratov Gofur Ashurovich</i>	
Talabalarning bolalardagi ijtimoiy moslashuvni shakllantirishga kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish.....	169
<i>Inomova Mahliyo Yusuf qizi</i>	
Jamoaviy va yakkakurashchi professional sportchilar motivatsiyasining ijtimoiy-psixologik farqlari	172
<i>Qaimova Gulmira Uchqun qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari.....	176
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Katta guruh tarbiyalanuvchilarida steam kompetensiyalarini shakllantirishning pedagogik va yoshga oid psixologik xususiyatlari.....	179
<i>Radjapova Zuxra Tirkashevna, Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari.....	183
<i>Yakubova Zilola Zikirovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining divergent fikrlashlarini rivojlantirish	187
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Akbarova Sarvinoz Sadriddinovna</i>	
Bo'lajak tarix o'qituvchilarida tarixiy tafakkur fenomenini rivojlantirish.....	191
<i>Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich</i>	
Pedagogical Conditions for Developing Professional Motivation of Economics Students Through Gamification in English Language Classes.....	196
<i>Bobokeldieva Maftuna Abdusamad qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilish faoliyatlarini shakllantirish asoslari	203
<i>Urunov Abduxalil Madjidovich</i>	
STEAM yondashuvi vositasida fizika fanida o'quvchilarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	208
<i>Jo'rayev H. O., Avezov I. Yo., Sharipov S. B.</i>	
STEAM ta'limi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning innovatsion fikrlashini rivojlantirish	214
<i>Cho'ponova Sharifa Bozor qizi, Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining konstruksiyalash va modellashtirish kompetensiyalarini rivojlantirish.....	219
<i>Haydarov Mirjalol Shog'dorovich</i>	

Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy shakllanish individual trayektoriyasini loyihalash metodikasi	222
M. B. Sheraliyeva	
Raqamli davrda kitobxonlik madaniyati va adabiyotning roli	228
Nabiyeva Sharifa Ismailovna, Ergasheva Mehriyona O'lmas qizi	
Jismoniy tarbiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari	231
O'razboeva Adiba Abdug'ani qizi	
Milliy kashtachilik asosida 5-sinf o'quvchilarining estetik tarbiyasini takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari	236
Olimova Dilnoza Murodullo qizi	
Aralash ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini 5E modeli vositasida takomillashtirish	240
Rajabova Nodirabegim Komilovna	
Oliy ta'lim talabalarining jismoniy sifatlarini rivojlantirishning metodik tizimini takomillashtirish	245
Raximov Bobirjon Abdurasulovich	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	250
Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna	
Ajdodlar siymosini ifodalash vositasida talabalarni milliy iftixor ruhida tarbiyalash jarayoni pedagogik muammo sifatida	255
Xaitov Zufar Asroralievich	
Готовность к обучению в школе у детей подготовительной группы	260
Шералиев Сарварбек Сохибжон угли	
Oliy ta'lim muassasasi talabalarining mustaqil ishini tashkil etishga oid nazariy yondashuvlar tahlili	263
Asadova Zarina Axmadovna	
Grammatik tarjima metodining asosiy tamoyillari va xususiyatlari	272
Erkinova Madina Komil qizi	
Umumta'lim maktablarini boshqarishda sinf rahbarlari faoliyatining pedagogik mohiyati	275
Komilova Ziroatxon Murodjon qizi	
Maktabga tayyorlov guruhida bolalarni savodga tayyorlashda rivojlanish markazlarining metodik ta'minotini takomillashtirish texnologiyalari	282
Maxmutazimova Yulduz Raxmatovna, Avazova Gulshoda Shodi qizi	
Turizm sohasi talabalarining ingliz tilidagi kasbiy diskursida uchraydigan kommunikativ to'siqlar va ularni bartaraf etish mexanizmlari	289
Usmonova Zilola Javlon qizi	
Chet tilini kasbiy fanlar bilan integratsiyalashda cilil modelining pedagogik xususiyatlari	294
Yo'ldoshev Otabek Abdug'aniyevich, Amirkulov Asliddin Shuxratovich	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini integrativ yondashuv asosida kompetensiyalarini rivojlantirish	299
Rajabova Dilfuza Abdumajitovna	
Социально-психологические особенности проявления тревожности и страха у жертв торговли людьми в подростковом возрасте	303
Махмудова Д. А.	
Adabiy asarlarda xronotop muammosining badiiy ahamiyati	306
Yaqubjonov Iqboljon Odiljonovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual rivojlantirishda sensor integratsiya yondashuvining ahamiyati ..	311
To'rayeva Charosxon Shavkat qizi	
Boshlang'ich sinf darslarida ekologik tarbiyani shakllantirishning samarali metodlari	316
Rahmonova Mavluda Suvon qizi, Safarova Rushana Murodullo qizi	
Badiiy asarlarni o'qitishda empatik yondashuvning metodik imkoniyatlari	320
Shoyimova Shoira Sanakulovna	
Bolalar me'yoriy ontogenezida yozuv va grafomotor ko'nikmalarini rivojlanishi	323
Alimova Kamola Xayrulla qizi	
Yosh voleybolchilarda o'yin qarorini qabul qilish (Decision-making) ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	328
Azimova Gulnoza Karimjon qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining pedagogik tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	333
Muxamadaliyeva Madinabonu Bohodirjon qizi	



Raqamli egizak texnologiyasi asosida bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi	336
<i>Sorimsokov Uchqun Soatboy o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga integrativ mashqlar orqali ta'lim berishning ahamiyati.....	340
<i>Zokirov Javohir G'aybullo o'g'li</i>	
Voleybol sport turini o'rgatish va uning mohiyati	345
<i>Eshbayev Ximmat Ablakul o'g'li</i>	
Qizlarning jamiyatdagi ijtimoiy faolligini oshirishning psixologik mexanizmlari	348
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining kasbiy rivojlanishi va qadriyatlar integratsiyalashuvining o'ziga xosligi	352
<i>A. Bozorov</i>	
Nutqiy etiket madaniyatning bosh bo'g'ini sifatida	357
<i>Abdurahmonova Kamola Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida ingliz tilida kasbiy yo'naltirilgan leksik kompetensiyani rivojlantirishga qo'yilgan zamonaviy talablar	362
<i>Axmatqulova Maxfuza Shuhrat qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti bolalarning rivojlanishida muhim omil sifatida	370
<i>M. Xo'jamberdiyeva, Abduvohidova Shaxnoza</i>	
Jismoniy mashqlar orqali stress va emotsional zo'riqishlarni kamaytirish imkoniyatlari.....	373
<i>Baxodirova Gulyora Nuriddin qizi</i>	
Kasbiy ta'limning raqamli transformatsiyasi va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari	378
<i>Biysenov Temirbek</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida raqamli texnologiyalardan foydalanishning didaktik asoslari	382
<i>Bo'libekova Maftuna Shermuxammadovna</i>	
"Tarbiya" darslarini tashkil etish texnologiyalari	388
<i>Boltayeva Marjona Oybek qizi, Samadova Mahbuba Nutfullo qizi</i>	
Challenges in Translating Behavioral Verbs: A Lexicographic Perspective from English and Uzbek.....	392
<i>Elchayev Zokhidjon Akhmatovich</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni qo'llashning istiqbolli yo'nalishlari	396
<i>Ernazarov Zohid Nazarovich</i>	
Tejamkor ta'lim muhitida kaizen texnologiyasi vositasida bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv madaniyatini rivojlantirish.....	400
<i>Eshonkulova Shaxnoza Bayturayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tabiiy fanlarga doir bilimlarni shakllantirish	403
<i>Nuriddinova Maysara Ikromovna, Eshonqulova Uralbuvish Fayzullayevna</i>	
Raqamli transformatsiya jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik mahoratni rivojlantirish	406
<i>G. X. Narzullayeva, F. M. Miraximova</i>	
Ekologik omillarning yosh sprinterlarning koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishdagi va musobaqa faoliyatidagi o'rni (Orol bo'yi mintaqasi misolida).....	411
<i>Genjemuratova Guljaxon Berdimbetovna</i>	
Emotsional intellekt konsepsiyasining rivojlanish bosqichlari	416
<i>Giyasova Nozimaxon Qahramon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish	419
<i>Imamova Nilufar Zabiyyulla qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi-pedagoglarni tayyorlashda dual yondashuv	422
<i>Israilova Xusnida Adilovna</i>	
Legaltech va Lawtech: global istiqbollar, muammolar va imkoniyatlar	427
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Nematov Dilshodbek</i>	
Kasbiy faoliyatda muloqot madaniyati va nutq mahoratini rivojlantirishning metodologik jihatlari.....	432
<i>Kalandarova Gavhar Sulaymanovna, Raxmatullayeva Shaxnoza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish ko'nikmalarini ingliz tilida shakllantirishda o'qitish metodlarining ahamiyati	435
<i>Kamalova Saida Maxamat Ibraximovna</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Bo'lajak maktabgacha ta'lim pedagoglarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlari 439 Kambarova Dilfuza Salijanovna
	Maktabdan tashqari ta'lim tizimida o'qituvchilarning motivatsiyasini oshirishda psixologik qo'llab-quvvatlashning o'rni 443 Karimova Nigora
	Bo'lajak pedagoglarning intellektual-artistik mahoratini rivojlantirishda mikromodulli mobil ta'lim (M-Learning) texnologiyasining loyihasi 447 Karriboyeva Lobarxon Fayzulla qizi
	Raqamli ta'lim platformasi yordamida texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativligini rivojlantirish..... 452 Raxmatov A'zam Ashur o'g'li, Kenjayeva Marjona Komil qizi
	CEFR standartlari asosida ielts imtihoniga tayyorlash metodikasi 457 Mavlyanova Nilufar Suvankulovna, Ahadova Go'zal Ismatulloevna
	Project-Based Learning in Professional Education 461 Mukhtarova Nozima Kuchkarovna
	Kreativ kompetensiya- zamonaviy o'qituvchi muhim kasbiy sifatining ustuvor omili 464 Nazarova Madinabonu Narzi qizi
	Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda psixologik xizmatning o'rni..... 468 Nosirova Muhabbat Pirmurod qizi, Jabborova Malohat Azimovna
	Yuqori sinf o'quvchilarida o'ziga ishonchni oshirishda psixologik treninglarning ahamiyati..... 472 Nozimboyeva Muqaddas Abdulvohid qizi
	Brayl sistemasidagi boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni o'qitishda interfaol usublardan foydalanish..... 477 Nuriddinova Maysara Ikramovna, Jo'raqulova Sharofat Baxtiyorovna
	Abdulla avloniy ijodida gender madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat g'oyalarning pedagogik tahlili 480 Nurimbetova Shaxnoza Gayrat qizi
	Analitik kimyo fanidan mass-spektrometriya mavzusini muammoli ta'lim metodi asosida o'qitish samaradorligini oshirish..... 485 Nurjanova Fazila Farxadovna, Qo'chqarova Nargiza Otabekovna
	Talabalarda oilaviy budjetni boshqarish kompetensiyalarini rivojlantirishda loyiha ta'limining o'rni..... 489 Nurmatova Maftuna Ilxamovna
	Tyutorlarning innovatsion faoliyatini tashkil etishda sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati..... 493 O'rinova Nilufar Muhammadovna, Muxammadjonova Madinabonu Isroiljon qizi
	Ona tili darslarida o'quvchilarda sintaktik tushunchalarni shakllantirish usullari..... 498 O'rozboyeva Dilnoza Alimboy qizi
	Xulq-atvor fe'llarining ma'nosini yoritishda misollarning funksional roli 501 Ochilova Sanobar Narzullayevna
	Pedagogik ta'lim jarayonida umummadaniy kompetentlikning mazmuni va tarkibiy komponentlari 504 Olimova Dilrabo Nurali qizi
	Boshlang'ich sinflarda tabiiy fan orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik-psixologik bosqichlari..... 508 Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Qutlimuratova Barchinoy Xolmurot qizi, Sirojeva Jasmina Rustamovna
	Pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida bo'lajak o'qituvchilarni badiiy meros asosida ma'naviy-estetik rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari 512 Otaboboyeva Umida Ilxomovna
	Maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik rivojlanishida mental yondashuv metodikasining ahamiyati 517 Parpiyeva Mohinur Baxtiyor qizi
	Yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda madaniy merosning ahamiyati..... 520 Radjapova Zuxra Tirkashevna
	Boshlang'ich ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning samarali usullari 523 Rahmonova Mavluda Suvon qizi, Sanginova Sevinch Bunyod qizi
	Pedagogik sinflarni tashkil etish tamoyillari va asoslari..... 527 Sadulloeva Farog'at Hikmatillo qizi



Yillik mashg'ulot jarayonida o'rta masofa yuguruvchilarining tezlik-kuch ko'rsatkichlarini rivojlantirish metodikasi	530
Saotov Farhod Alisher o'g'li	
Bugungi kunda talabalarni mutaxassis sifatida shakllantirishda maqsadga muvofiqlik, natijadorlik, optimallik va ijodkorlik mezonlari (pedagogika ta'lim yo'nalishi misolida).....	535
Satimboyeva Xurshidaxon Anvarjon qizi	
O'quvchilarning nutq kompetensiyasini rivojlantirish metodlari	539
Sharipova Marjona Rashidovna	
Zamonaviy yoshlar orasida prokrastinatsiya muammosi.....	543
Tillayeva Nodira Iskandar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning estetik madaniyatini shakllantirish	546
Umarova Gulshod Abduljabbarovna	
Yoshlarning ijtimoiy identifikatsiyasi shakllanishining psixologik omillari	552
Xolmirzayev Zafar Mirzamadinovich	
Karate sport turining madaniyati.....	556
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li	
Ko'ngillilik faoliyatining ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	560
Yo'ldosheva Iqbol Bekbo'lsin qizi	
Talaba-yoshlarni milliy kurash mashg'ulotlariga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	563
Zaynobidinov Dilshodbek Qobilovich	
Raqamli ta'lim muhitida o'smirlarning o'zini anglash jarayoni va uning shaxsiy rivojlanishga ta'siri.....	567
Zufarova Yulduzxon Muxiddin qizi	
Интерпретация биологических терминов на русском языке	570
Абдуллаева Нигора Курбановна	
Жанровые особенности рассказа-антиутопии В. С. Маканина "Однодневная война".....	574
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Мифопоэтика и аксиологические функции архетипа матери-хранительницы в повестях В. Г. Распутина "Последний срок" и "Прощание с матёрю"	578
Коржова Шахло Одилжоновна	
Методологические аспекты изучения адаптаций Песчанковых (Gerbillidae) к аридным условиям: анализ классических и современных исследований	585
Нурова Хикоят Кенжаевна	
К вопросу о руководстве самостоятельной работой студентов при изучении иностранных языков	590
Рахимова Мухайё Акмаловна	



NUTQIY ETIKET MADANIYATNING BOSH BO'G'INI SIFATIDA



Abdurahmonova Kamola Erkin qizi

Navoiy davlat universiteti, Navoiy shahar, O'zbekiston

ORCID raqam: 0009-0009-8666-2999

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqiy etiketning madaniyat tizimidagi o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Nutqiy etiket tushunchasining mohiyati, uning shakllanish omillari, ijtimoiy va kommunikativ vazifalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda nutqiy etiketning milliy o'ziga xosligi, zamonaviy jamiyatda tutgan mavqei va uning ta'lim-tarbiya jarayoniga ta'siri yoritiladi. Maqola nutqshunoslik, ijtimoiy lingvistika va madaniyatshunoslik kesishmasida joylashgan bo'lib, nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: nutqiy etiket, madaniyat, muloqot, kommunikativ kompetensiya, ijtimoiy normalar, til madaniyati, milliy o'ziga xoslik.

Abstract: This article analyzes the role and significance of speech etiquette in the system of culture from a scientific and theoretical perspective. The essence of the concept of speech etiquette, its formation factors, and its social and communicative functions are examined. The study highlights the national characteristics of speech etiquette, its position in modern society, and its influence on the educational process. The article is situated at the intersection of linguistics, sociolinguistics, and cultural studies and possesses both theoretical and practical significance.

Key words: speech etiquette, culture, communication, communicative competence, social norms, language culture, national identity.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются место и значение речевого этикета в системе культуры. Рассматриваются сущность понятия речевого этикета, факторы его формирования, а также его социальные и коммуникативные функции. В исследовании освещаются национальные особенности речевого этикета, его роль в современном обществе и влияние на образовательный процесс. Статья находится на стыке языкознания, социолингвистики и культурологии и имеет теоретическое и практическое значение.

Ключевые слова: речевой этикет, культура, общение, коммуникативная компетенция, социальные нормы, культура речи, национальная самобытность.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda kommunikatsiya madaniyati insonning ijtimoiy hayotidagi eng muhim ko'nikmalardan biriga aylandi. Globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va jamiyatlararo muloqotning kengayishi nutqiy xulq-atvor me'yorlariga yangicha talablar qo'yimoqda. Aynan shu sharoitda nutqiy etiket muloqot jarayonining axloqiy va madaniy asosi sifatida ilmiy tadqiqotning markaziy ob'ektiga aylandi.

Nutqiy etiket muammosi tilshunoslik, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va psixologiya fanlarining kesishmasida o'rganiladi. U nafaqat to'g'ri so'zlash qoidalarini, balki muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi murakkab me'yoriy tizimni ifodalaydi. Shu bois ushbu tushunchani madaniyatning bosh bo'g'ini sifatida ko'rib chiqish ilmiy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga ega yondashuv hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot nutqiy etiketning madaniy tizimda tutgan o'rni, uning ijtimoiy va kommunikativ vazifalarini kompleks tahlil qilishga, shuningdek, nutqiy etiket me'yorlarining milliy madaniyat bilan bog'liqligini ochib berishga qaratilgan. Maqolada qo'yilgan asosiy muammolar quyidagi savollarga javob topadi: Nutqiy etiketning madaniy mazmuni nima? U madaniyatning qaysi jihatlarini belgilaydi? Zamonaviy jamiyatda nutqiy etiket qanday o'zgarishlarga uchramoqda?

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Nutqiy etiket muammosi tilshunoslik, sotsiologiya, pragmatika va madaniyatshunoslik fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushuncha muloqot jarayonida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi til birliklari va kommunikativ xulq-atvor me'yorlarini o'z ichiga oladi. Nutqiy etiketning nazariy asoslari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, uning madaniyat tizimidagi o'rni va funksiyalari yuzasidan turli ilmiy qarashlar shakllangan.

Nutqiy etiket nazariyasining rivojlanishida rus tilshunosi V.Ye.Gol'dinning ilmiy ishlari muhim o'rin tutadi. Olim nutqiy etiketni kommunikativ xulq-atvorning ajralmas qismi sifatida talqin qilib, uning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi ahamiyatini asoslab bergan.

N.I.Formanovskaya esa nutqiy etiket formulalarining kommunikativ vazifalarini tadqiq etib, salomlashish, xayrlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash va murojaat qilish shakllarining lingvistik xususiyatlarini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida nutqiy etiket muloqot madaniyatining asosiy ko'rsatkichi sifatida baholanadi.

Pragmatika va sotsiologiya yo'nalishida faoliyat yuritgan P.Brown va S.Levinson odoblilik nazariyasini ishlab chiqib, muloqot jarayonida hurmat va ijtimoiy masofani ifodalovchi universal tamoyillarni asoslab berganlar. Ularning fikricha, nutqiy etiket insonning ijtimoiy mavqei, yoshi, kasbi va muloqot vaziyatiga qarab turlicha namoyon bo'ladi. A.Wierzbicka esa nutqiy etiketning milliy-madaniy xususiyatlarini tadqiq qilib, har bir xalqning etiket me'yorlari uning dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlaydi.

O'zbek tilshunosligida nutqiy etiket va til madaniyati masalalari Sh. Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev, H.Ne'matov, N.Mahmudov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda o'zbek xalqining salomlashish, murojaat qilish, hurmat bildirish va duogo'ylik kabi nutqiy etiket birliklari milliy madaniyatning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, o'zbek nutqiy etiketida yoshi ulug'larga hurmat, kamtarlik, mehmondo'stlik va jamoaviylik qadriyatlarini yetakchi o'rin egallashi qayd etilgan.

So'nggi yillarda raqamli kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida nutqiy etiketning yangi shakllari yuzaga kelmoqda. Tadqiqotchilar internet etiketi (netiquette) tushunchasini alohida ilmiy yo'nalish sifatida ko'rib chiqib, virtual muloqotda qo'llaniladigan yangi kommunikativ me'yorlarni tahlil qilmoqdalar. Bu jarayon nutqiy etiketning zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yanada ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, nutqiy etiket madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u nafaqat muloqot samaradorligini ta'minlaydi, balki milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarning avloddan avlodga uzatilishida ham muhim vosita vazifasini bajaradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod, tizimli tahlil, lingvomadaniy tahlil va sotsiologiya kuzatish metodlaridan foydalanildi. Manbalar sifatida o'zbek, rus va xorijiy tilshunoslikdagi nutqiy etiketga bag'ishlangan fundamental ilmiy asarlar, lug'atlar, monografiyalar hamda zamonaviy tadqiqot natijalari qo'llandi.

Nazariy asos sifatida V.Ye.Gol'dinning nutqiy etiket nazariyasi, N.I.Formanovskayaning kommunikativ xulq-atvor konsepsiyasi, A.K.Bayramovning milliy etiket tadqiqotlari, shuningdek, o'zbek tilshunos olimlari - Sh.Rahmatullayev, B.Yo'ldoshev va H.Ne'matovlarning lingvomadaniy tadqiqotlari asos qilib olindi.

Tadqiqot mavzusining kengligi va ko'p qirraliligini hisobga olgan holda, tahlil uchta yo'nalishda olib borildi. Birinchidan, nutqiy etiketning nazariy-falsafiy asoslari. Ikkinchidan, uning ijtimoiy-madaniy vazifalari. Uchinchidan, milliy madaniyatdagi o'ziga xos ko'rinishlari. Bu yondashuv tadqiqot natijalarining ishonchliligini va xulosalarning asoslanganligini ta'minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Nutqiy etiketning mohiyati va madaniy mazmuni

Etiket so'zi fransuzcha "etiquette" - yozuv, yorliq so'zidan kelib chiqqan bo'lib, XVII asrdan boshlab jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlari majmuasini anglatadi. Nutqiy etiket esa bu tushunchaning tilga tegishli bo'lgan sohasi, muloqot jarayonida qo'llaniladigan normativ iboralar, murojaat shakllari va kommunikativ xulq-atvor qoidalari tizimidir.

Nutqiy etiket madaniyat tizimida bosh bo'g'in vazifasini bajarishining asosiy sababi shundaki, u insonning barcha ijtimoiy munosabatlarida - oilada, ishda, jamoat joylarida, rasmiy va norasmiy muloqotda - doimiy ravishda namoyon bo'ladi. Madaniyat esa aynan ijtimoiy munosabatlar orqali avloddan avlodga o'tadi, saqlanadi va rivojlanadi. Nutqiy etiket shu jarayonning asosiy vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, nutqiy etiket quyidagi madaniy komponentlarni o'zida mujassam etadi: milliy qadriyatlar tizimi (nima muhim, nima hurmatga loyiq), ijtimoiy ierarxiya tasavvurlari (kichik-katta, boshliq-xodim munosabatlari), axloqiy me'yorlar (yaxshi-yomon xulq haqidagi tasavvurlar), estetik did (go'zal nutq, ifodali so'zlash) va jamoa tuyg'usi ("biz" va "ular" o'rtasidagi chegara).



2. Nutqiy etiketning kommunikativ va ijtimoiy vazifalari

Nutqiy etiket bir nechta muhim ijtimoiy-kommunikativ vazifalarni bajaradi.

Birinchi va asosiy regulyativ vazifasi - nutqiy etiket muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi, nizolarning oldini oladi va o'zaro tushunishni ta'minlaydi.

Ikkinchi identifikatsion vazifasi - nutqiy etiket orqali inson o'zining ijtimoiy guruhga mansubligi, madaniy kelib chiqishi va qadriyatlar tizimini namoyon qiladi.

Uchinchi muhim ekspressiv vazifasi - nutqiy etiket muloqot ishtirokchisiga hurmat, samimiyat, mehr yoki rasmiy munosabatni ifodalash imkonini beradi.

To'rtinchi ijtimoiylashish vazifasi - bola nutqiy etiket me'yorlarini o'zlashtirib, jamiyatning to'la huquqli a'zo-siga aylanadi va ijtimoiy munosabatlar tizimini ichkaridan anglaydi.

Beshinchi madaniyatni saqlash va uzatish vazifasi: nutqiy etiket formulalari avloddan avlodga o'tib, madaniy xotirani saqlab turadi.

Sotsiologiyistik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, nutqiy etiket me'yorlarini buzish oddiygina grammatik xato kabi qabul qilinmaydi, u aksariyat hollarda shaxsiy haqorat yoki madaniyatsizlik belgisi sifatida baholanadi. Bu esa nutqiy etiketning sof lingvistik hodisa emas, balki chuqur madaniy-ijtimoiy fenomen ekanligini tasdiqlaydi.

3. Nutqiy etiketning milliy o'ziga xosligi

Har bir xalqning nutqiy etiketi o'sha xalqning tarixi, urf-odatlarini, dini va turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek nutqiy etiketining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinganda, bir nechta muhim jihat ko'zga tashlanadi. Birinchidan, katta yoshlilarga hurmat ko'rsatishning boy tizimi: o'zbek tilida yoshga qarab murojaat shakllari to'liq almashinadi (sen/siz, ism/ota ismi, aka/opa/domla kabi murojaatlar). Ikkinchidan, mehmonnavozlik va salomlashish rituellari: o'zbek salomlashuv etiketi nafaqat so'z, balki imo-ishora, jismoniy murojaat va hol-ahvol so'rash an'analarini o'z ichiga oladi. Uchinchidan, jamoachilik qadriyatining tilga ta'siri: o'zbek nutqiy etiketida individual maqtanish yoki o'zini boshqalardan yuqori qo'yish nomaqbul hisoblanadi, aksincha, kamtarlik va jamoa manfaatini ustuvor qo'yish maqtovga sazovor. To'rtinchidan, diniy-madaniy formulalar: "Assalomu alaykum", "Xayr, inshoolloh", "Barakalla" kabi iboralar kundalik muloqotning ajralmas qismini tashkil etadi va ularni bilmaslik yoki noto'g'ri qo'llash madaniyatsizlik belgisi sifatida qabul qilinadi.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, turli madaniyatlardagi nutqiy etiket me'yorlari bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Masalan, yapon madaniyatida kechirim so'rash etiketi nihoyatda murakkab va ko'p bosqichli, arab madaniyatida salomlashuv uzoq va marosimlashgan, g'arb madaniyatlarida esa to'g'ridan to'g'ri muloqot va vaqtni tejash etiketi ustuvorlik qiladi. Bu farqlar nutqiy etiketning madaniy nisbiyligini va uning har bir xalq madaniyatining noyob ifodasini ko'rsatadi.

Nutqiy etiketning nazariy kontseptualizatsiyasi (yangi yondashuv). Ilmiy adabiyotlarda nutqiy etiket ko'pincha tor ma'noda - muloqot jarayonidagi normativ iboralar va murojaat shakllari majmuasi sifatida talqin qilinadi. Biroq ushbu tadqiqot natijalariga ko'ra, bunday yondashuv nutqiy etiketning to'liq mohiyatini ochib bera olmaydi. V.Ye. Gol'din (1978) uni "kommunikativ xulq-atvorning ijtimoiy-tilshunoslik aspekti" deb ta'riflagan bo'lsa, N.I. Formanovskaya (2002) esa nutqiy etiketni "muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi ramziy tizim" sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu tadqiqot esa ikkala yondashuvni sintezlashtirgan holda, nutqiy etiketni madaniyatning generativ - ya'ni madaniyatni qayta ishlab chiqaruvchi va uzatuvchi - mexanizmi sifatida kontseptualizatsiya qilishni taklif etadi. Agar nutqiy etiket faqat normalar to'plami bo'lsa, uni mexanik ravishda yodlatish yetarli bo'lardi. Ammo agar u madaniyatning generativ mexanizmi ekanligi tan olinsa, u holda nutqiy etiketni o'zlashtirishning o'zi madaniy ijtimoiylashuv jarayonining asosiy yo'li ekanligi anglashiladi. Bu nazariy farq amaliyotda ta'lim metodikasiga, madaniyatlararo muloqot tayyorgarligiga va lingvomadaniy tadqiqotlarga bevosita ta'sir qiladi.

Madaniyatlar qiyosida nutqiy etiket: universallik va nisbiylik muammosi. Tadqiqot jarayonida duch kelingan eng murakkab muammolardan biri nutqiy etiketda universallik va madaniy nisbiylik o'rtasidagi munosabat masalasidir. Brown va Levinson (1987) "Odoblilik nazariyasi"da barcha madaniyatlarda mavjud deb hisoblangan universal prinsiplarni "ijobiy odoblilik" va "salbiy odoblilik" asosida bayon bergan. Ularning ta'biricha, ijobiy odoblilik suhbatdoshning yutuqlarini, shaxsiyatini qo'llab-quvvatlashni anglatganda, salbiy odoblilik uning avtonomiyasini, mustaqilligini hurmat qilishni bildiradi. Biroq Wierzbicka (1991) bu nazariyani tanqid qilib, odoblilik tushunchasining o'zi madaniyatdan madaniyatga farq qilishini ko'rsatdi. Masalan, o'zbek madaniyatida "ijobiy odoblilik" ko'pincha to'g'ridan to'g'ri maqtov emas, balki suhbatdoshni mehmon qilish, unga hol-ahvol so'rash, oila a'zolari haqida qiziqish bildirish orqali namoyon bo'ladi. G'arb madaniyatlarida esa bunday savol berish ba'zan shaxsiy hayotga aralashish sifatida qabul qilinishi mumkin. Bu tafovut shuni ko'rsatadiki, nutqiy etiketda universal prinsiplar mavjud bo'lsa-da, ularning muayyan madaniyatdagi ifodalanish shakllari tubdan farq qiladi. Shu bois madaniyatlararo muloqotda nutqiy etiket xatolarining oldini olish uchun nafaqat boshqa tilni, balki o'sha tilning madaniy mantiqini ham o'rganish zarur.

Raqamli kommunikatsiya va nutqiy etiketning transformatsiyasi. Zamonaviy raqamli kommunikatsiya nutqiy etiketga misli ko'rilmagan darajada kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu ta'sir bir yo'nalishli emas - u bir vaqtning o'zida etiket me'yorlarini ham buzmoqda, ham yangi shaklda qayta yaratmoqda.

Qisqarish hodisasi: ijtimoiy tarmoqlar va messengerlar muloqotida salomlashish va xayrlashuv formulalari keskin qisqardi. "Assalomu alaykum, qalaysiz, ahvollaringiz yaxshimi?" o'rniga faqat "salom" yoki hatto emoji yetarli deb hisoblanmoqda. Bu hodisani bir tomonlama "etiket inqirozi" sifatida baholash to'g'ri emas - bu kommunikatsiya shaklining o'zgarishiga moslashuvning tabiiy jarayonidir.

Yangi etiket me'yorlarining paydo bo'lishi: "Netiquette" (internet etiketi) o'z qoidalarini shakllantirdi: xabarni o'qib, javob bermaslik qo'pollik; katta harflar bilan yozish (CAPS LOCK) "qichqirish" sifatida qabul qilinadi; guruh chatida shaxsiy masalani ko'tarish nomaqbul; suhbat mavzusidan chetga chiqish "offtopic" deb tanqid qilinadi. Bu qoidalar an'anaviy etiket kitoblarida yo'q, ammo ijtimoiy amaliyotda qat'iy bajariladi.

O'zbek internet makonidagi o'ziga xoslik: kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, o'zbek foydalanuvchilari raqamli muhitda ham milliy etiket elementlarini saqlab qolishga harakat qiladi. Yoshlar ham ko'pincha katta yoshlilar bilan yozishmada "siz" shaklini qo'llaydi, rasmiy murojaat formulalarini saqlaydi. Bu esa o'zbek nutqiy etiketining madaniy ildizlari naqadar chuqurligi va uning raqamli transformatsiyaga nisbatan qarshilik ko'rsata olish qobiliyatidan dalolat beradi.

Nutqiy etiket va ijtimoiy tabaqalanish. Nutqiy etiket ijtimoiy tenglik va tabaqalanish masalalari bilan chambarchas bog'liq. Murojaat shakllarining tanlanishi - sen yoki siz, ism yoki lavozim, rasmiy yoki norasmiy ton - muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi ijtimoiy munosabatni belgilaydi yoki mustahkamlaydi. Bu hodisa Bourdieu (1991) tomonidan "lingvistik kapital" deb ta'riflangan: to'g'ri nutqiy etiketni bilish ma'lum ijtimoiy muhitlarda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan madaniy kapitalning bir qismi hisoblanadi. O'zbek jamiyatida bu hodisa ayniqsa ma'lum muassasalarda, rasmiy muhitlarda, ilmiy doiralarda nutqiy etiket me'yorlarini bilmagan kishi o'z fikrini qanchalik to'g'ri ifoda etmasin, uning gapiga yetarli e'tibor berilmasligida yaqqol ko'rinadi. Bu esa nutqiy etiketning sof til hodisasi emas, balki ijtimoiy-siyosiy fenomen ekanligi va uni o'rganishda keng ijtimoiy kontekstni inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonida nutqiy etiket: muammo va yechimlar. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimida nutqiy etiketni o'qitishda bir qator tizimli muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Birinchi muammo: nutqiy etiketni ko'pincha grammatika yoki adabiyot darslarining qo'shimchasi sifatida, alohida fan sifatida emas, o'qitish. Bu yondashuv uning madaniy chuqurligini yetkazishga imkon bermaydi. Ikkinchi muammo: an'anaviy va zamonaviy me'yorlar o'rtasidagi ziddiyat. Maktab darsliklarida o'rgatiladigan etiket shakllari ko'pincha hayotiy muloqotda qo'llanilmaydigan arxaik iboralardir. Bu esa o'quvchida nutqiy etiketga nisbatan sun'iy, hayotdan uzoq tuyg'u uyg'otadi. Uchinchi muammo: milliy va global etiket me'yorlari o'rtasidagi muvozanat. Globallashuv sharoitida yoshlar ko'pincha g'arb kommunikatsiya modellarini o'zlashtiradi va milliy etiket me'yorlarini eskirgan, noqulay deb baholaydi. Bu tendensiya milliy madaniy o'zlikni saqlab qolish uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bu muammolarga yechim sifatida nutqiy etiketni kontekstual va kommunikativ yondashuv asosida, ya'ni turli ijtimoiy vaziyatlar - rasmiy, norasmiy, raqamli, madaniyatlararo - kontekstida o'qitish taklif etiladi. Bunday yondashuv o'quvchiga etiket me'yorlarini qotib qolgan qoidalar sifatida emas, balki muayyan madaniy mantiqqa ega tirik tizim sifatida tushunishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, nutqiy etiket madaniyatning bosh bo'g'ini sifatida o'z vazifasini bajaradi, chunki u insonning barcha ijtimoiy munosabatlarida doimiy ravishda namoyon bo'lib, madaniy qadriyatlarni avloddan avlodga uzatadi.

Ikkinchidan, nutqiy etiket regulyativ, identifikatsion, ekspressiv, ijtimoiylashish va madaniyatni saqlash kabi muhim vazifalarni bir vaqtning o'zida bajaradigan ko'p funksiyali tizimdir.

Uchinchidan, har bir xalqning nutqiy etiketi o'sha xalqning tarixiy-madaniy tajribasi, qadriyatlar tizimi va turmush tarzini bevosita aks ettiradi. O'zbek nutqiy etiketi o'z ichiga hurmat, kamtarlik, mehmonnavozlik va diniy-madaniy formulalar kabi o'ziga xos elementlarni oladi.

To'rtinchidan, zamonaviy raqamli kommunikatsiya nutqiy etiketni siqib chiqarmaydi, aksincha, uning yangi shakllarini vujudga keltiradi. Bu esa nutqiy etiket tadqiqotlarining dolzarbligi va zaruratini saqlab turadi.

Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim tizimida til madaniyatini o'qitishni takomillashtirish, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish, shuningdek, milliy nutqiy etiket me'yorlarini zamonaviy jamiyat talablariga moslashtirish borasida amaliy ahamiyat kasb etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Формановская Н. И. Речевой этикет и культура общения. - М.: Высшая школа, 2002. - 159 с.
2. Гольдин В. Е. Этикет и речь. - Саратов: Издательство Саратовского государственного университета, 1978. - 112 с.
3. Bayramova A.K. Milliy etiket va uning tilga ta'siri. - Toshkent: Fan, 2005. - 134 b.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1978.
5. Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq. - Toshkent: O'qituvchi, 1993. - 160 b.
6. Yo'ldoshev B. O'zbek nutq etiketi. - Toshkent: Akademiya, 2008. - 95 b.
7. Leech G. Principles of Pragmatics. - London: Longman, 1983. - 250 p.
8. Brown P., Levinson S. Politeness: Some Universals in Language Usage. - Cambridge: CUP, 1987. - 345 p.
9. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics. - Berlin: Mouton de Gruyter, 1991. - 502 p.
10. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. - Toshkent, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.